



JADID ADABIYOTIDA AXLOQIY MASALALARNING BADIY TALQINI

Burxonov Abdulhay Xayrilojon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti talabasi

tel: +998200083718

Annotatsiya: *Jadidlar “ o'lkani uyg'otish va xalqning ko'zini ochishda, aniqrog'i, milliy uyg'onish davri g'oyalarini hayotga joriy etishda: matbuot, maktab, maorif hamda adabiyot va san'atning imkoniyatlaridan unumli foydalana oldilar. Turli xil to'siqlarga qaramay, “Taraqqiy”, “ Xurshid”, “ Vaqt”, “Oyna”, “Samarqand”, “Sho'ro”, “Shuhrat”, “ Turon”, “ Buxoroi sharif ”, “ Sadoi Farg'ona”, “ Sadoi Turkiston “ kabi gazetalarni ham tashkil etib, o'sha davrning muhim g'oyalarini, xususan, ma'rifatparvarlik, millatparvarlik, taraqqiyparvarlik, erk va mustaqillik g'oyalarini targ'ib etdilar. Bu jihatdan, ayniqsa, M.Behbudiy, Fitrat, Munavvar Qori, A. Avloniy, Hamza kabi jadidlarning publitsistik maqolalari ko'pchilikning diqqat e'tiborini o'ziga jalb qildi.*

Kalit so'zlar: *jadid, ma'rifatparvar, ma'naviyat, odob, g'oya, millat.*

Аннотация: *Джадиды использовали прессу, школы, образование, литературу и искусство, чтобы эффективно пробудить страну и открыть глаза народа, или, скорее, воплотить в жизнь идеи эпохи национального пробуждения. Несмотря на различные препятствия, они также организовывали такие газеты, как «Тараккий», «Хуришид», «Вакт», «Ойна», «Самарканд», «Шо'ро», «Шухрат», «Турон», «Бухара Шариф», «Садои Фергана», «Садои Туркестон», и стали важными фигурами той эпохи. Они распространяли свои идеи, особенно идеи просвещения, национализма, прогресса, свободы и независимости. В этом отношении журналистские статьи таких джадидов, как М. Бехбудий, Фитрат, Мунаввар Кори, А. Авлоний и Хамза, привлекли внимание многих.*

Ключевые слова: *Джадиды, просвещение, духовность, мораль, идея, нация.*

Abstract: *The Jadids used the press, schools, education, literature, and art to effectively awaken the country and open the eyes of the people, or rather, to implement the ideas of the era of national awakening. Despite various obstacles, they also organized newspapers such as Tarakkiy, Khurshid, Waqt, Oyna, Samarkand, Sho'ro, Shuhrat, Turon, Bukhara Sharif, Sadoi Fergana, Sadoi Turkiston, and became important figures of that era. They disseminated their ideas, especially the ideas of enlightenment, nationalism, progress, freedom, and independence. In this regard, the journalistic articles of such Jadids as M. Behbudiy, Fitrat, Munavvar Qori, A. Avloniy, and Hamza attracted the attention of many.*

Keywords: *Jadids, enlightenment, spirituality, morality, idea, nation.*

Jadid adabiyoti namoyandalari – Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Mirzo Xo'qandiy – o'z asarlarida axloqiy-tarbiyaviy g'oyalarni badiiy talqin qilish orqali jamiyatni yangilash, millatni uyg'otish va ma'rifatni yoyishni asosiy maqsad qilib qo'yganlar. Ularning asarlarida



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



axloq, ta'lim, ma'rifat masalalari chuqur falsafiy va badiiy ifoda topgan. **“Turkiy Guliston yoxud axloq”** asarida Avloniy “axloq”ni inson kamolotining asosi sifatida ko'rsatadi. U yaxshilik va yomonlik, halollik va nopoklik, ilm va jaholatni qarama-qarshi qo'yib, o'quvchini to'g'ri yo'l tanlashga undaydi. Badiiy talqinda u sodda, ravon til, maqol va hikmatlardan foydalanib, axloqiy tushunchalarni xalqona ruhda yetkazadi. Avloniy uchun ta'lim – faqat bilim emas, balki tarbiya bilan uzviy bog'liq jarayon degan g'oyani ilgari surgan.

Fitrat esa o'zining “Munozara” va “Hind sayyohi bayonoti” kabi asarlarida Fitrat jamiyatdagi ijtimoiy illatlarni ochib beradi. U eski maktab tizimini tanqid qilib, yangi usuldagi ta'limni targ'ib qiladi. Fitratning badiiy uslubi ko'proq dialog va munozaraga qurilgan bo'lib, bu orqali u turli qarashlarni to'qnash keltirib, haqiqatni ochishga intiladi. Axloqiy talqin bu yerda tanqidiy realizm orqali ifodalanadi.

Mirzo Xo'qandiy ijodida esa axloqiy-tarbiyaviy ruh an'anaviy she'riy shakllar orqali beriladi. U o'z g'azal va nasriy asarlarida insoniy fazilatlar – sabr, kamtarlik, ilmga intilish, vatanparvarlikni madh etadi. Badiiy talqinda ko'proq tasavvufiy va didaktik yo'nalish ustun bo'lib, o'quvchini ichki dunyosini poklanishga chaqiradi. Bu davrda dramaturgiyaga ham juda katta e'tibor qaratildi. Mutaxassislarning aniqlashiga ko'ra, Oktabr to'ntarilishigacha dramaturgiyaning o'ttizdan ortiq namunasi vujudga keldi. Hatto, shakllanish davriga kirgan bu adabiy turning tragediya, drama, komediya kabi barcha janrlarida qator asarlar maydonga keldi. Xo'sh, buning sabablari nimada? Asrlar davomida buyuk daholarini yetishtirgan klassik adabiyot nima uchun aynan XX asr boshlariga kelib ijodkorlarni qoniqtirmay qo'ydi? Adabiyotning maqsad vazifalari o'zgardimi? Shuu va shunga o'xshagan savollarga javob topmoq uchun har qanday hodisaning mohiyatini belgilovchi tabiiy, ijtimoiy sabablarni aniqlamoq davr manzaralarini, uning o'zgarish mansha'ini kuzatmoq uchun dramaturgiya juda kerak edi.

Behbudiy jadidchilik harakati va adabiyotini boshlab bergan kishi sifatida teatr bilan shug'ullanmasligi, san'atning xalq ommasiga eng samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bu turiga katta e'tibor bermasligi mahol edi. O'zining tarix oldidagi missiyasini chuqur his qilgan adib 1911- yilda birinchi o'zbek dramasi “Padarkush” ni yozib, Turkistona yangi san'at turiga tamal toshini qo'ydi. Sir emaski, mamlakatimizda uzoq asrlar davomida xalq teatri faoliyat olib borgan va tomoshabinlarga madaniy xizmat ko'rsatib, bayramlar va to'y-hashamlarning quvnoq o'tishiga munosib hissa qo'shib kelgan. Lekin Behbudiy va uning jadid safdoshlari boshlab bergan teatr professional teatr san'atining dastlabki bosqichi bo'ldi.

Shu narsani unutmaslik lozimki, 1911- yili, Behbudiy asaridan bir oz avval, Qo'qonlik muallim Abdurauf Samadovning “Mahramlar” piyessasi risola shaklida nashr etilgan. Bu tarixiy fakt, ayrim ijodkorlar nazarida, Behbudiy o'zbek dramaturgiyasining otasi, Padarkushni esa birinchi o'zbek dramasi deyishimizga monelik qiladi. Lekin “Mahramlar”ning dastlab “O'liklar” nomi bilan tatar tilida yozilgani va muallifning o'zi ham tatar millatiga mansub bo'lganini e'tiborga tutsak, Behbudiy o'zbek teatr san'atiga, xususan, o'zbek dramaturgiyasiga poydevor qo'ygan siymo sifatida e'tirof etishimiz



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



o'rinalidir. Qolaversa A.Samadovning bu asari "Padarkush" dan keyin sahna yuzini ko'rgan va uning sahnalashtirilishi Turkistonning o'sha yillardagi madaniy hayotida "Padarkush" ning namoyishidek ulkan tarixiy voqea bo'lmagan.

Hali milliy adabiyotda dramaturgiya namunalari bo'lmagan bir paytda "Padarkush" ning yaratilishi oddiy hodisa emasdi. Shuning uchun ham o'zbek teatrining rus millatiga mansub tarixchilari bu asarni Fonvizin qalamiga mansub "Dunduk" (Nedarocli) piesasi tasirida yaratilgan, degan fikrni olg'a surib keldilar. Holbuki, 1877 yildan 1917- yilgacha bo'lgan davrda Turkistonda gastrolga kelgan rus teatrlari yoki teatr truppalarning birortasi Toshkent, Samarqand yoki boshqa shaxarlard "Dunduk" ni namoyish etishmagan. Behbudiyning ham bu asar bilan tanish bo'lganligi haqida birorta ma'lumot keltirilmagan.

Shu narsa e'tiborga sazovorki, A. Samadovning "Mahramlar" piesasi yaqin o'tmishdagi illatlardan biri – bachchabozlikka qarshi yozilgan bo'lsa, Behbudiy o'z asarida ma'rifatsizlikning millat va millatning har bir a'zosi hayotiga ko'rsatajok fojiali zararini tasvirlab bergan.

Asarning "Padarkush yoxud O'qimagan bolaning holi" deb nomlanishi ham tasodif emas. "Padarkush" munosabati bilan yozilgan maqolalarning birida asarning hayotda ro'y bergan real hodisa tasirida yozilgani aytiladi. Bu fikrning haqiqatga qanchalik mos yoki qanchalik zid ekanidan qat'iy nazar, XX asr boshlarida o'z farzandi tarbiyasiga e'tibor bermagan otalar ham, yoshlik yillari takasaltang, ishyoqmas, maishatparast boyvuchchalar davrasida o'tgan bolalar ham oz bo'lmagan. Behbudiy "Padarkush" da nafaqat shunday otalar, balki shunday farzandlarning hayoti ham fojia bilan tugashi mumkinligini ko'rsatib, ularning har ikkalasini va , umuman, XX asr boshlaridagi o'zbek jamiyatini ogohlantirishga intilgan. Biz bugun kunda daqiqa sari rivojlanayotgan yurtimizda bu holatlarni yana uchratmoqdamiz. Maishatga berilib ketgan farzandlarning xoh qiz , xoh og'il bo'lsin ota- onasiga qo'l ko'tarishi, urishib, haqoratlash holatlari, ularni yuzini yerga qaratadigan ishlarni qo'rqmay qilyotganlariga kun ora guvoh bo'lmoqdamiz. Bunday farzandlarning tarbiyasi uchun ota- onalar diqqat e'tiborlarini qaratmasalar jamiyatimizda bunday "Padarkushlar" soni tobora ortib boraveradi.

Muallif asar sarlavhasidan keyin qavs ichida uning janri va mavzusini " Turkistonning maishatidan olingan ibratnoma" deb belgilagan. Shuningdek, asarni kitobxonga "3 parda 4 manzarali milliy birinchi fojia"⁵⁶ sifatida taqdim etgan. Asarda Boy (50 yashar) va uning o'g'li Toshmurod (15 -17 yashar) dan tashqari Domulla , Ziyoli va boshqa personajlar harakat etdilar.

Bundan qariyb 100 yil avval yozilgan bu asardagi Domullaning xalqni ma'rifatga da'vat etishi, uning taqdiridan qayg'urishi bilan bog'liq motiv hali ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Negaki, shiddat bilan rivojlanib va tarmoqlanib borayotgan bilimlarni mukammal egallamasdan turib, buyuk kelajakni barpo etish mumkin emas, albatta. Behbudiy teatr haqida

⁵⁶ Shavkat Mirziyoyev . "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz". Toshkent " O'zbekiston" 2017 yil



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



maqolalar yozib, bu san'atning ahamiyatini quyidagi misralar bilan tushuntiradi: “teatr nimadur? Janobig'a teatr ibratnomadur, teatr va'zxonadur, teatr ta'zir adabidir. Teatr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub, kar quloqsizlar eshitib asarlanur. Xulosa: teatr va'z va tanbih etuvchi hamda zararlik odat urf va taomilni, qabih va zararini ayon ko'rsatuvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildiruvchidir.”⁵⁷

Chor hukumati Turkistonda teatr san'atining tug'ilishiga, binobarin, “padarkush” ning sahna yuzini ko'rishiga qarshilik ko'rsatishi mumkin edi. Ammo chor oxrankasi bu madaniy voqeada Rossiyaning davlat manfaatlariga zid biror narsani ko'rmadi.

1917- yil 7 – fevral kuni “shaxrisiyabiskiy” laqabli hufyalardan biri chor oxrankasiga bunday maxfiy ma'lumotlarni bergan:

“Bundan uch- to'rt yil ilgari Samarqandda sart lahjasida nashr etilayotgan “Oyina” jurnalining muharrir- noshiri Behbudiy “Otasining qotili” manosi anglatuvchi” Padarkush” degan piasasini sart lahjasida yozgan edi. Behbudiy yo'nalishiga ko'ra, taraqqiyparvar- millatchi bo'lib, Turkiyada ta'lim olgan ko'rinadi.

“Padarkush” piasasida eski usuldagi tip (konservator) sahnaga olib chiqilgan, u bolalari ruslashib, kofir bo'lib ketmasliklari uchun ularning ma'lumotli bo'lishlarini istamaydi va ularni kofir bo'lib ketishidan qo'rqadi. Sart aytadiki, men butun umr bo'yi yaxshi yashab, boylik orttirdim va shu boylik bolalarimning emin- erkin yashashlari uchun bemalol yetadi...Pyesa mazmuni keka sartilarga nihoyatda yoqmagan va ular spektaklni qo'yuvchilarni “padarkushlar” deb atashgan...”⁵⁸

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otanalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".⁵⁹

Adabiyotlar ro'yxati

1. A. Fitrat “Chin sevisht”, Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1996

⁵⁷ Behbudiy M. Tanlangan asarlar. –B 174

⁵⁸ Tarixning nomalum sahifalari. Birinchi Kitob. – Toshkent, 2009. – B. 27.

⁵⁹ Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



2. Abdurahmonova. B. O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi "Farg'ona" 2020.
3. B. Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, marifat, fidoyilik. –Toshkent.: Ma'naviyat, 2002.
4. . Boltaboyev. H. "Abdurauf Fitrat" . Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma, -Toshkent.: O'qituvchi, 1992
5. Boltaboyev. H. Fitrat va jadidchilik. -Toshkent., 2007.
6. . M. Xo'qandiy, *Tanlangan she'rlar*, Qo'qon, "Meros" nashriyoti, 2005, 28-bet.

